



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR - TIL LUG'AT TARKIBINING ICHKI MANBASI

Xalilova Zilola Farmonovna
Navoiy davlat universiteti doktoranti
zilola.khalilova@inbox.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179635>

Annotatsiya: *Frazeologizmlar dunyo obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birlik, tilshunoslik, maqol, adabiy, ilmiy, tarjima, neologizm, muqobil.*

KIRISH

Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi.

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan mana shu jihati bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi.

Frazeologizmlar nemis tilshunosligida o'rganila boshlangach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish masalasi ko'tarila boshlandi. Nemis tilshunos olimlari frazeologizmlarni turlicha yondashuvlar asosida klassifikatsiyalashgan.

Demak, tilshunos olimlar frazeologizmlarni turli xil jihatlarini o'rganishga urinishgan. Barcha sohalarda bo'lgani kabi frazeologiya ham o'zining o'rganish obyektiga ega.¹ Frazeologiyaning o'rganish obyekti o'z navbatida shunday murakkab va o'ziga xoski, uni o'rganish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan frazeologik birliklar va ularning tilda turli metodlarda tahlili nutqimiz rivojlanishiga yangi manbaalar yaratadi. Frazeologiya nemis tilshunosligida umuman olganda asosiy mavzu ekanligi allaqachon isbotlab ko'rsatib berilgan.² Nemis tilini shakllanishida, nemis va o'zbek erkin birliklarni o'rganilishida til ichida yana bir til

¹BURGER, Harald (1987): Aktuelle Probleme der Phraseologie. Bern et al.: Lang.

² BURGER, Harald (1998): Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Schmidt. (vgl. Schemann 1992, S. 135)



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

rivojlanishi uchun frazeologiyaning o'zni beqiyosligini birliklar kesimida yana bir bor tahlil qilmoqdaman.

1. jm. in die Rede fallen (so'zga tushmoq, so'z olmoq, gapirmoq)	jm. ins Wort fallen
2. an der Reihe sein (qatorda bo'lmoq, keyingisi bo'lmoq)	der Nächste sein
3 den Faden verlieren (kalavani y o'qotmoq)	das Thema verlieren
6. fix und fertig (tap-tayyor)	völlig erschöpft/ganz fertig
4. dicke Luft (qalin havo, xavfli ob-havoga nisbatan)	Gefahr
8. an die Luft gehen (havoda yurmoq, sayr qilmoq)	Spazierengehen
9. in die Luft fliegen (havoga uchmoq)	Explodieren
10. sich lustig machen über (quvonmoq)	mit Humor die Schwächen von etwas zeigen
11. mach dir nichts daraus (xafa bo'lmaslik)	ärgere dich nicht
12. von Mensch zu Mensch (insondan -insonga) (to'gridan -t o'gri)	Direkt
13. von Mann zu Mann (erkakdan -erkakga) (to'gridan -t o'gri)	Direkt
14. den Mund halten (og'izni tutmoq) (jim bo'lmoq, gapirmaslik)	still sein
15. von Mund zu Mund gehen (og'izdan og'izga)	sich schnell verbreiten
16. ach und nach (qadam- baqadam)	Allmählich
17. jm. zum Narren halten (kimnidir ahmoq deb hisoblamoq)	jm. Verspotten
18. die Nerven verlieren (tinchligini y o'qotmoq)	die Ruhe verlieren
19. die Nerven behalten (tinchlikni asramoq)	die Ruhe bewahren
20. gute Nerven haben (asab joyida)	viel aushalten können
21. ganz Ohr sein (qulog'i dik, diqqatli bo'lmoq)	aufmerksam zuhören
22. seine Papiere bekommen (qo'ozni olmoq, pattasini olmoq)	
23. an der Quelle sitzen (birinchi qo'l)	Waren/ Nachrichten aus erster Hand bekommen
24. frisch von der Quelle (birinchi qo'l)	aus erster Hand
25. am Rande des Grabes stehen (qabrning chetida, bir oyo'i go'rda, bir oyog'i yerda)	todkrank sein
26. im Recht sein (haq bo'lmoq)	recht haben

ASOSIY QISM

G'.Salomov o'zbek tilshunosligi uchun g'oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasini bilan maxsus shug'ullangan olimdir. Olimning ta'kidlashicha, "Maqol-xalq aql idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari majmuyi,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

turmushdagi turli voqea hodisalarga munosabatining ifodasidir". Frazelogizmlarni o'rganishda ularni o'zbek va boshqa tillar frazeologizmlari bilan qiyosiy o'rganish ham maqsadga muvofiq ko'rinadi.³ Frazelogik iboralar nutqning ta'sirchanligini, emotsional - ekspressivligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz ko'rki hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan xorijiy til frazeologizmlarining xususiyatlarini o'rganib, ularni o'zbek tilida ifodalash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Har tillardagi frazeologizmlarni qiyosiy o'rganishda ularning mazmun jihatdan bir - biriga mos kelishi yoki qisman mos kelishi, o'xshashligiga hamda bir tilda mavjud bo'lgan frazeologizmlarning ikkinchi tilda na ekvivalentiga, na muqobiliga egaligiga e'tiborni qaratish lozim. Olimlarning ta'kidlashlaricha, tarjima jarayonida bir tilga xos bo'lgan grammatik vositalarni albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart emas. Bunday hollarda tarjimada vaziyat yo kontekstga alohida e'tibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada so'zlar kabi frazeologizmlarning anglatgan ma'nosini, emotsional - ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur. Idioma - shaklan bo'laklarga ajralmaydigan, maxraji birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri va konkret ma'nosi bilan talqin qilinmaydigan, ko'chma ma'no anglatuvchi barqaror so'z birikmasidir.

Frazelogik birliklarning ibora - tasvir vositalari tizimida turgan o'rnini tadqiq qilish davom ettirildi.

Bunday yo'nalishdagi tadqiqotlarda asosan yangi ilmiy soha - frazeologiyaning ko'pgina o'ziga xos muammolari o'rganildi va o'zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi yangi frazeologik birliklar tahlili hisobiga boyib bordi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, har bir til o'z doirasidagi so'zlarni o'rnida ajratish, qiyoslash va muqobillik ko'rinishlarini xarakterlash orqali aks ettirishda muhim rol o'ynaydi.

Inson qiyofasi va xarakterini, ichki kechinmalari va xayolotini ifodalash har bir tilda ko'rilganda, shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda beriladi. Shuningdek, tilning qanchalik keng maydonga egaligidan darak beradi. Mazkur tillar tarkibidagi frazeologik birliklar tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi: Ko'rib chiqilgan frazeologik birliklar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi; Ikkala tilning iboralari insonning fe'l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi, bu frazemalar til egasi idrokining o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

³ G'. as-Salom, Ezgulikka bog'lan, odamzod. Toshkent-1997



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Frazeologizmlarda ikki va undan ortiq leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan oddiy yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Frazeologik ma'noning o'ziga xosligi frazemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlarning tabiatini belgilab beradi. Frazemalarning leksemalar bilan kechadigan sinonimik, antonimik, daraja munosabatlari frazemalararo munoasabatlardan farq qiladi. Fikrni teran, tiniq, tushunarli, sodda, ixcham so'zlar asosida biriktirib ustama ma'no anglatuvchi til birligi mustaqil, erkin birikmaligi bilan tilimizda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BURGER, Harald (1987): Aktuelle Probleme der Phraseologie. Bern et al.: Lang.
2. 2.Burger Harald. Idiomatik des Deutschen, 1974, 4
3. G'. as-Salom, Ezgulikka bog'lan, odamzod. Toshkent-1997
4. Fleischer, Wolfgang: Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache, Leipzig 1982, S. 67
5. В.Н. Телия, Русская фразеология, Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты, 1996